

## **„TA'LIM OLISH UCHUN QULAY MUHIT“ TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK JIHATLARI**

*Matkarimov Akramjon Muxtorovich*

*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: akramjon14@list.ru, tel: +998007703966*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim sohasidagi islohatlarda „ta'lim olish uchun qulay muhit“ tushunchasining ifodalanishi, uning o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashdagi ahamiyati bayon qilingan. Xalqaro baholash tadqiqotlarida ham ta'lim olishga ta'sir qiluvchi omillar keng o'rganilib, oila, maktab va maktab joylashgan hududda shakllantirilgan qulay muhit ta'lim jarayonini samaradorligi va natijadorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** oila, ta'lim, akademik resurslar, maktab, o'quvchi, hamkorlik, oiladagi ta'lim muhiti, xalqaro baholash tadqiqotlari

## **ПОНЯТИЕ «БЛАГОПРИЯТНАЯ СРЕДА ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ» И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ**

*Маткаримов Акрамжон Мухторович*

*Докторант научно-исследовательский институт семьи и гендера,  
доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Электронная почта: akramjon14@list.ru, телефон: +998007703966.*

**Абстракт:** В статье описывается выражение понятия «благоприятная среда для обучения» в образовательных реформах, его значение в обеспечении успешности учащихся в образовании. Факторы, влияющие на образование, широко изучаются в международных оценочных исследованиях, при этом подчеркивается, что благоприятная среда, формируемая в семье, школе и местности, где расположена школа, имеет решающее значение в обеспечении эффективности и результативности образовательного процесса.

**Ключевые слова:** семья, образование, академические ресурсы, школа, студент, партнерство, среда семейного обучения, международное оценочное исследование

## **THE CONCEPT OF "CONVENIENT ENVIRONMENT FOR LEARNING" AND ITS SOCIAL-PEDAGOGICAL ASPECTS**

*Matkarimov Akramjon Mukhtorovich*

*Doctoral student at the Research Institute of Family and Gender, Doctor*

*of Philosophy of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Email: akramjon14@list.ru, phone: +998007703966.*

**Abstract:** The article describes the expression of the concept of "favorable environment for learning" in educational reforms, its importance in ensuring the success of students in education. Factors affecting education are widely studied in international evaluation studies, and it is emphasized that the favorable environment formed in the family, school and the area where the school is located is of decisive importance in ensuring the effectiveness and efficiency of the educational process.

**Key words:** family, education, academic resources, school, student, partnership, family learning environment, international assessment research

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va olimlari tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim tizimiga tadbiq etishning ijtimoiy-pedagogik asoslariga doir fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda xalqaro baholash tadqiqotlarini milliy ta'lim tizimiga tadbiq etish va bu orqali o'quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish, ularda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan hayotiy-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga tayyorlash ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi sifatida qayd etilmoqda. Buning uchun milliy ta'lim tizimi mazmunini tashkil etuvchi: o'quv dasturlari, darsliklar, o'qitish metodikasi va ta'lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilmoqda va bosqichma-bosqich tadbiq etilmoqda. Boshqa tomondan o'quvchilarning ta'lim olishda ijtimoiy tenglik tamoyiliga muvofiq sifatli ta'lim olishi va bu orqali mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'rishi, ularda qaror qabul qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash kompetentsiyalarini tarkib toptirish islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limga oid islohotlar ko'proq tizimning innovatsion komponentlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirishning texnologik modellarini yaratish va sohaga rivojlangan xorijiy davlatlarning

ilg'or tajribalarini tatbiq etish yo'nalishlarida ko'zga tashlanmoqda. Muntazam ravishda o'tkazilib boriladigan xalqaro baholash tadqiqotlari milliy ta'lim tizimini innovatsion g'oyalar, yondashuvlar va ilg'or tajribalar bilan rivojlanib borishiga xizmat qiladi. Xalqaro pedagogik amaliyotda milliy ta'lim tizimini uzluksiz rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik omillarni hisobga olish tajribasi keng yo'lga qo'yilgan. Natijada o'quvchilarning ta'lim olishdagi teng imkoniyatlarga ega bo'lishlilik bilan bog'liq ijtimoiy masalalar hal qilinmoqda.

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta'lim muassasalari o'quvchilarida tayanch kompetentsiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning ta'lim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlariga bog'lagan holda aniqlaydi. Tayanch kompetentsiyalar ijtimoiy me'yor sifatida ham talqin qilinishi mumkin bo'lib, bu tushuncha o'quvchining kundalik-amaliy faoliyatda mustaqil hayot kechirishi uchun lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning umumlashmasini tavsif etadi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tadbiq etish samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari o'rganilganligi hamda shu jihatlarni hisobga olgan holda ta'limdagi islohotlarni rejalashtirish bilan uzviy bog'liq.

Shuningdek, xalqaro baholash tadqiqotlarida „o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati“ tushunchasi keng qo'llanilgan bo'lib, o'quvchining ta'lim mazmunini mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llay olishini ko'rsatadi. O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy aspektlari ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi;
- ta'lim olishning o'z hayotidagi ahamiyati tushunishlilik;
- „umumta'lim muassasasi-oila hamkorlik mexanizmi“ning samaradorligi;
- oilalarda ta'limiy qadriyatlarning rivojlanganligi;
- ijtimoiy, akademik va madaniy resurslarning mavjudligi va ulardan

foydalanishning mavjud holati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni 6-ilovasida keltirilgan „Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida islohatlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasi“da ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan oshirishga qaratilgan vazifalarda „ota-onalarning farzand tarbiyasiga bee'tiborligi, o'quvchilar o'rtasida turli huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etishning salbiy oqibatlar aks ettirilgan videokontentlarni tayyorlash hamda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'quvchilar, ota-onalar o'rtasida namoyish etish [1]“ belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur yo'l xaritasida „Ta'lim olish uchun qulay shart-sharoit yaratish“ deb nomlangan V qismida „Umumiy o'rta ta'lim tizimida „Ta'lim uchun qulay muhit“ dasturini amalga oshirish“ alohida ta'kidlab o'tigan. Mazkur vazifalar mazmuniga „aholini ta'lim muhitini rivojlantirishga jalb qilish, maktablarni rivojlantirishda shaxsiy daxldorlik hissini shakllantirish“ vazifasi alohida belgilab o'tilgan.

Ta'lim olish uchun qulay muhit umumiy o'rta ta'lim muassasasining moddiy-texnik jihozlarini hisobga olish tartibini takomillashtirish va byurokratik tartib-taomillarga barham berish; sanitariya-gigiena muammolari bilan bog'liq masalalarni kompleks hal qilish; umumiy o'rta ta'lim tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish uchun shart-sharoit yaratish; umumiy o'rta ta'lim muassasalarini diqqatga sazovor joylarga aylantirish, shuningdek davlat-xususiy shariklikning yangi turlarini joriy etish orqali ularning iqtisodiy barqororligini oshirish; umumiy o'rta ta'lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilashda davlat organlari va tashkilotlarining faol ishtirokini ta'minlagan holda ularni qo'shimcha maqsadli moliyalashtirish manbalarini shakllantirish kabi vazifalar belgilab o'tilgan[1].

„Ta'lim olish uchun qulay muhit“ keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Ta'lim olish uchun qulay muhit o'z tarkibiga ijtimoiy, psixologik, ma'naviy va madaniy muhitlarni qamrab oladi. Jumladan, pedagog olimasi R. Safarova

umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy muhitning o'ziga xos jihatlarini keltirib o'tadi. Madaniy muhit ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli jarayon sub'ektlarining shaxsiy qiziqishlari va manfaatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunda o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilarning manfaatlari uyg'unlashadi va yagona maqsad sari yo'naltiriladi. Ta'lim muassasasida o'quvchilarning muvaffaqiyatlari boshqa barcha ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashadi va madaniy ta'limiy muhitning samarali kechishiga ko'maklashadi. Buning natijasida o'quvchilarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Yuqori darajada tashkil etilgan madaniy ta'limiy muhitda har bir o'quvchining yutuqqa erishishi kafolatlanadi[4; 119].

Umumiy o'rta ta'lim maktabining asosiy funktsiyalaridan biri har bir o'quvchining o'ziga xos jihatlarini aniq va ravshan ochib berishdan iborat. Mazkur jarayonda o'quvchilarni madaniy-axloqiy jihatdan rivojlantirib, ularda fidoyilik, ijobiy dunyoqarashga ega bo'lish, o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilish, bunyodkorlikka intilish kabi sifatlarni tarkib toptirish talab etiladi. Har bir o'quvchining o'ziga xosligi uning rivojlanish yo'nalishini belgilaydi. Bu esa o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'zining faoliyat yo'nalishini aniqlab olish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar o'z faoliyatlari natijalarini aniq tasavvur qilib, baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Natijada, ularda o'z kuchiga ishonch, yangi yutuqlarga erishishga intilish motivlari shakllanadi[4; 119].

R. Safarova umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy-ta'limiy muhitning shakllanishiga „yaxlit, ochiq xarakterdagi, o'z-o'zini rivojlantiruvchi muhitni yaratish g'oyasi ta'lim muassasasining sub'ektlarini o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltiruvchi madaniy-ta'limiy muhitida amalga oshadi[4; 117]“

R. Axlidinov o'z dissertatsion ishida maktab avvalambor ijtimoiy muassasa ekanligini ta'kidlab o'tadi[2; 49]. Maktab boshqa ijtimoiy tashkilotlar singari tashqi muhit bilan faol aloqadagi to'laqonli murakkab tizim hisoblanadi

(bunda tizimlarning ochiq tizim deb atashadi) [2; 52]. Maktab hudud, mintaq va mamlakat ta'lim majmualaridan tarkib topgan yanada kengroq maorif tizimlari sirasiga kiradi. Shu vaqtning o'zida maktab butun ijtimoiy tizimning bir qismi hisoblanadi va uning hayotiy faoliyati ko'p darajada atrofdaan kelayotgan ta'sirlarga bog'liq. Lekin maktabning tashqi muhit bilan aloqasi bir tomonlama bo'lmasdan, balki ikki tomonlama bo'lib, maktabda tashqi muhitga nisbatan erkin tanlash huquqi bor.

- tashqi muhit o'zgarishlari va talablari darajasida bo'lishga harakat qilgan holdagi nafaol-ko'nikuvchanlik holatida;
- tashqi muhit o'zgarishlarini hamda ijtimoiy buyurtmani tahlil qilish va shu bilan real o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish, faol-ko'nikuvchanlik holatida;
- muhitga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan, ya'ni bir vaqtning o'zida ko'nikuvchan tizim tariqasida (muhitga nisbatan) va ko'niktiruvchi tizim tariqasida (muhitni o'zining ehtiyojlariga bo'ysunduruvchi) bo'lishi mumkin[2; 54].

Komil insonni tarbiyalash oiladan boshlanadi, u avlodlarga tarixiy-ma'naviy boyliklarni, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlarini asrab yetkazadi, ularda milliy ong shakllantirishda jahon tsivilizatsiyasiga munosib ulush qo'shayotgan milliy madaniyat uchun g'ururlanish tuyg'usini uyg'otadi. Dasturda ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oilaning bosh tarbiya o'chog'i ekanligi, aynan oilaning nafaqat bola ko'rish va shu bilan birga uni tarbiyalash, turmush tarzini shakllantirishdagi, bolalarni ijtimoiy boyliklar va vazifalar bilan tanishtirishdagi o'rni ochib boriladi, bolalarni hozirgi zamonning ziddiyatlari va murakkabliklariga olib kirish masalalarini yoritadi[5; 109].

V.M. Karimova oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni „yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlar“ deb atagan. Oilaviy ijtimoiy tasavvurlar-shaxsning shaunday tasavvurlar tizimiki, ular vositasida shaxs „oila“ tushunchasi atrofidagi barcha hodisa va ob'ektlarni tushunadi va ularga nisbatan

ma'lum munosabatni shakllantirgan bo'ladi (ijtimoiy ustanovka). Ular ijtimoiy bo'lgani uchun ham oilaviy hayotning deyarli barcha sohalari-o'zaro munosabatlar, oilaviy rollar, reproduktiv xulq-atvor. Oila a'zolarining shaxsiy fazilatlari haqidagi tasavvurlarini o'z ichiga oladi[3; 324].

Oiladagi ta'lim muhitni shakllanishida kitob, kitob mutolasining ahamiyati katta. Ilmiy adabiyotlar tahlili oiladagi kitoblarga bo'lgan ijobiy munosabat farzandlarning kognitiv rivojlanishida quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- atrof-muhitni, dunyoni va o'z-o'zini anglashga yordamlashadi;
- yodda saqlash va o'ylash qobiliyatini rivojlantiradi. Ya'ni, ko'p kitob o'qigan odamning yodda tutish darajasi yaxshi, tez o'ylab, tez xulosa chiqaradigan bo'ladi;
- talqin qilish, analiz yasashga va shaxsiy fikrning shakllanishiga yo'naltiradi;
- ko'pgina yutuq va muvaffaqiyatlarga asos bo'ladi;
- odamlar bilan to'g'ri muomala qilishga o'rgatib, to'g'ri gapirishni shakllantiradi;
- so'z boyligini va savodxonlik darajasini oshiradi;
- bolalar yashirinib yotgan ijodiy qobiliyatni yuzaga chiqaradi.

Oilaning ta'lim resurslarini oila a'zolari tomonidan farzandlarining ta'lim olishi uchun xizmat qiladigan ta'lim vositalari, materiallari va texnologiyalari tashkil etadi. Ta'limiy resurslar farzandlarni bilimlarni o'zlashtirishi, mustaqil ta'lim olish jarayonini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash, o'rganish strategiyasini egallashga yordam beruvchi, jamiyatning yangi talablaridan kelib chiqqan holda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish (virtual ta'lim texnologiyalari va ulardan foydalanish uchun imkoniyat), qitish metodikasini o'zgartirish, yangi talabalar uchun tayyorlash, fanlar bilan bog'liq barcha ko'nikmalarni o'rganishga va fani tahlil qilishga yordam beradi.

Oilaning ta'lim resurslari o'z ichiga o'qitish materiallarini, darsliklarni, elektron kitoblar va maqolalar, elektron ta'lim dasturlari, qo'llanmalar, elektron sinov materiallari va test savollari, interaktiv darsliklar va video darsliklar kabi texnologik vositalarni o'z ichiga oladi. Milliy ta'lim tizimida ota-onalarning tashabbusi muhim hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalar ta'lim tizimining bilvosita hamkori sifatida ularning roli hamda tashabbusining ahamiyati va uning salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda. Dunyoning barcha davlatlarida ta'lim tizimi oldida turgan muammolardan biri sifatida ta'lim sohasidagi ijtimoiy muammolar hisoblanadi. Dunyodagi globallashtirish jarayonlari, jamiyatni axborotlashtirish, raqamlashtirish, iqtisodiy faravonlik kabi jarayonlar oilalar va ularning funktsional vazifasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Avlodlar almashinuvi ham bu jarayonlarni yana murakkablashtirib bormoqda.

Ota-onalarning tashabbusi o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati bilan qanday aloqadorlikka ega? Bu savol bilan tadqiqotchilar, pedagoglar ko'p shug'ullanadilar. Ota-onalarning tashabbusi oilada, yashab turgan hududda farzandlarining ta'lim olishi, rivojlanishi uchun qaratilgan faoliyatlarda tashabbuskorlik qilish, qatnashish nazarda tutiladi. Shuningdek, bu ota-ona va maktab hamkorligini ham qamrab oladi. Ota-onalarning tashabbusi maktab faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ulkan resurs hisoblanadi[6].

Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari va ularning turli davlatlardagi ilmiy tahlili asosida o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning ta'limdagi muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liqligini, milliy ta'lim tizimi samaradorligi uning ijtimoiy jihatlarini hisobga olinishi va doimiy ravishda ta'lim tizimiga doir muammolar bilan birgalikda ijtimoiy masalalarni ham o'rganib borishni taqozo etishini yaqqol ko'rsatadi. Gap shundaki, ta'limdagi ijtimoiy tengsizlikning sabablari xilma-xil va murakkab tushunchadir. Milliy ta'lim tizimi sohasiga doir ta'lim siyosati bu kabi ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega, ammo bu barcha ijtimoiy muammolarni hal qilinishida yagona yechim bo'la olmaydi. Ta'limga doir ijtimoiy muammolar umumta'lim maktablarining

jamiyatning boshqa institutlari bilan hamkorligi, o'qituvchilarni tayyoqlash va malakasini oshirish, jamiyatdagi iqtisodiy resurslarni taqsimoti hamda ta'limni moliyalashtirish, ta'limning ahamiyatini qadriyatlar darajasiga kotarililganligi kabi masalalar bilan o'rganish barobarida ijtimoiy masalalar hal bo'lib boradi. Ta'lim sohasidagi vazirliklar, boshqarmalar ta'lim muammolarini barchasini hal qiluvchi yagona institute deb qaramaslik lozim bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni 6-ilovasida keltirilgan „Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida islohatlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasi“// <https://lex.uz/uz/docs/-6476175>
2. Axlidinov R. Sh. Umumiy o'rta ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi materiallari asosida). Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T. 2002. B. 48.
3. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixologiya fanl. d-ri...diss.- T., 1994.- 324b.
4. Safarova R.G'. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy muhit yordamida o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari// „Umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar“ mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2023.- B. 117-120
5. Sharipova D.D. Ta'lim oluvchilarni tarbiyalash jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish./ „O'zbekiston respublikasida ta'lim uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash: ustuvor yo'nalishlar va dolzarb vazifalar“ mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanning tezislari to'plami, TDIU, T. 2018. - 109-111B.

6. [https://pll.harvard.edu/course/introduction-family-engagement-education?  
delta=4](https://pll.harvard.edu/course/introduction-family-engagement-education?delta=4)